

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 3



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-3>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамад

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамад

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Nurmatova Zarifa Abduraup qizi IKKI TILDA MULOQOT QILADIGAN BOLALARNING NUTQIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	5
2. O‘tamuradova Malohat ALISHER NAVOIY MEROSI NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARIDA.....	9
3. Петросьянц Эрнст Ашотович ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, МОТИВИРОВАННЫЕ ИМЕНАМИ СОБСТВЕННЫМИ ПОЛИТИКОВ В АНГЛОЯЗЫЧНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ.....	13
4. Jo‘raqulova Mushtariy Abdumalik qizi O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING YASALISH PARALLELIGI TADQIQI.....	23
5. Gulamova Malika Yakubovna O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA NUTQIY STRATEGIYALAR VA UNDASH USULLARI.....	27
6. Achilova Ozoda Farxodovna YAPON TILIDAGI MAQOLLARNI O‘ZBEK TILIDA MUQOBILLASHTIRISHDA TAYANILADIGAN OMILLAR.....	32
7. Nematillayevna Zubaydova PROBLEMS RELATED TO THE COMPARATIVE ANALYSIS OF LANGUAGES IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTICS.....	36
8. Насруллаева Тозагуль Сухробовна ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА В РОМАНЕ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «ФИНАНСИСТ».....	39
9. Mo‘minova Ma’suma G‘olib qizi SUV LEKSEMASI TAHLILIGA OID QIYOSIY-TARIXIY, SISTEM-STRUKTUR YO‘NALISHDAGI TADQIQOTLAR.....	43
10. Xamrayeva Zebiniso Xaydarovna MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALARNING IYERARXIK VA FUNKSIONAL TIZIM DOIRASIDAGI DERIVATSION VA SEMANTIK TAHLILI.....	53
11. Malika Solieva PHONOLOGY AND CULTURE: LINGUISTIC ASPECTS OF INTERACTION.....	58
12. Kodirova Shaxnoza Abduraxmonovna “MIMIKA, JEST VA BOSH HARAKATLARI KABI NOVERBAL MULOQOTNING QIYOSIY, LINGVOMADANIY TAHLILI.” (YAPONIYA, O‘ZBEKISTON VA BOSHQA MAMLAKATLAR MISOLIDA)...	61
13. Shamuradova Naima Muxtarovna DISCOURSIIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS EXPRESSING VERBAL POLITENESS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	66
14. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li STENDAL IJODIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING TA’SIRI (“Qizil va qora” hamda “Parma monastiri” asarlari misolida).....	70
15. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTINI S.MOEM ISHLARIDA REPREZENTATSIYASI XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI.....	74
16. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA’MINOTI.....	79
17. Davlatova Hulkaroy Uktamovna TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA.....	84

18. ЗулфANOVA Нигина НуриТдиновна СТРУКТУРА ФРЕЙМА «ТВОРЧЕСТВО» ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РОМАНА «А.МЁРДОК «THE BLACK PRINCE».....	93
19. Turakulova Sitora Fazlidinovna JANUBIY KOREYALIK YOZUVCHI KON JIYONNING “BIZNING BAXTLI DAMLARIMIZ” ROMANIDAGI OBRAZLAR RUHIYATI TASVIRI.....	98
20. Nurimbetova Dilnaz Yeshmuratovna "MILLIY TAOM" REALIYALARI VA ULARNING TARIXIY KONTEKSTI.....	104
21. Erkinova Ruxshona O‘tkirovna, Kurbonova Gulnoza Irkinovna YAPON VA JAHON ILMIY-FANTASTIKA (SF) ADABIYOTI QIYOSIY TAHLILI.....	109
22. Qayimova Maftuna Tursunovna OILAVIY MUHITDA QIZLARING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O‘ZBEKISTONDA).....	114
23. Хасанова Мавлюда Батыралиевна ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДИСКУРСА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	117
24. Iskandarova Aybibi Raximbayevna “QIYOMAT” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING XOSLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	125
25. Barno Abdusattarovna Mirsharipova PAK VANSO ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIGA DOIR.....	134
26. Muslimova Shahnoza Sunnatovna YOM SANSOP HIKOYALARIDA HAYOT VA O‘LIMNING YANGI IFODASI.....	139
27. Anorqulov Sanjar Iskandarovich TILSHUNOSLIKDA TOPONIMIK KONSEPT VA UNING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI.....	144
28. Karimboyeva Charos Ikrom qizi SIROJIDDIN SAYYID VA BAXTIYOR GENJEMUROD SHE‘RIYATIDA TUSH OBRAZI.....	148
29. Mirvaliyeva Dildora Anvarovna DAVLAT TILIDAGI AXBOROT USLUBI MATNLARINING ELEKTRON TA‘MINOTI .HUJATCHILIKDA IMLO VA TINISH BELGILARI.....	153
30. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Abdullayeva Nasima Murodullayevna O‘ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSI UCHUN DIALEKTAL SUBKORPUSINI YARATISH MASALALARI.....	157
31. Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich ASPEKTUAL SEMANTIKANING KOGNITIV MAZMUNI.....	166
32. Shamaxmudova Aziza Furkatovna MILLIY XARAKTER VA XUSHMUOMALILIK: ISPAN TIL SOHIBLARI TAFAKKURIDA HURMAT TAMOIYILLARI.....	170
33. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTIV SINTAKSEMALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	176



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Shamaxmudova Aziza Furkatovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor,
Ispan va italyan tillari kafedrası mudiri
Samarqand davlat chet tillar instituti
aziza_shamaxmudova@mail.ru

MILLIY XARAKTER VA XUSHMUOMALILIK: ISPAN TIL SOHIBLARI TAFAKKURIDA HURMAT TAMOYILLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.18734118>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ispan milliy mentalitetida xushmuomalilik va hurmat tamoyillarining o'ziga xosligi tadqiq etiladi. Tadqiqot yosh (18-30 yosh) va katta yoshdagi (31-61 yosh) respondentlar ishtirokida anonim so'rovlar orqali amalga oshirildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xushmuomala inson tasavvuri ko'p qirrali bo'lib, samimiylik, e'tibor, yordam berishga tayyorlik, muloyimlik va hurmat kabi asosiy fazilatlarni o'z ichiga oladi. Katta yoshdagi respondentlar orasida "hurmat" tushunchasi xushmuomalilikning asosiy indikatoriga aylanadi, bu esa ispan kognitiv maydonida hurmat tamoyillarining murakkab va ko'p qatlamli tabiati mavjudligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, xushmuomalilikning ijtimoiy kontekstdagi ifodasi va milliy xarakter bilan bog'liqligi ham aniqlanadi.

Kalit so'zlar: milliy xarakter, xushmuomalilik, hurmat tamoyillari, ispan mentaliteti, nutqiy madaniyat, kognitiv maydon, yosh va kattalar respondentlari.

Шамахмудова Азиза Фуркатовна

Доктор филологических наук (DSc), профессор,
Заведующая кафедрой испанского и итальянского языков,
Самаркандский государственный институт иностранных языков
aziza_shamaxmudova@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются особенности вежливости и принципов уважения в рамках испанского национального менталитета. Исследование проводилось с помощью анонимных опросов среди молодых (18-30 лет) и взрослых (31-61 год) респондентов. Результаты показывают, что представление о вежливом человеке многогранно и включает такие ключевые качества, как искренность, внимательность, готовность помочь, обходительность и уважение. Среди взрослых респондентов понятие «уважение» становится основным индикатором вежливости, что подтверждает сложную и многоуровневую природу принципов уважения в испанской когнитивной сфере. Кроме того, выявляется связь между проявлением вежливости в социальном контексте и национальным характером.

Ключевые слова: национальный характер, вежливость, принципы уважения, испанский менталитет, культура речи, когнитивная сфера, молодые и взрослые респонденты.

Shamakhamudova Aziza Furkatovna

Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor,
Head of the Department of Spanish and Italian Languages,
Samarkand State Institute of Foreign Languages
aziza_shamaxmudova@mail.ru

ABSTRACT

This article examines the specific features of courtesy and principles of respect within the Spanish national mentality. The study was conducted through anonymous surveys involving young (18-30 years old) and older (31-61 years old) respondents. The results indicate that the concept of a courteous person is multifaceted, encompassing key qualities such as sincerity, attentiveness, willingness to help, politeness, and respect. Among older respondents, the notion of “respect” becomes a primary indicator of courtesy, demonstrating the complex and multi-layered nature of respect principles in the Spanish cognitive domain. Additionally, the study identifies the connection between expressions of courtesy in social contexts and national character.

Keywords: national character, courtesy, principles of respect, Spanish mentality, speech culture, cognitive domain, young and older respondents.

Chet tilini o‘zlashtirish jarayoni nafaqat lug‘aviy birliklarni bilishni, balki ushbu tilni yaratgan xalqning madaniy-milliy qarashlari va konseptual olam tasavvurini ham chuqur anglashni taqozo etadi. V. Krasnix ta’kidlaganidek, til o‘zida “madaniy makonning turli qatlamlari, milliy voqelikning o‘ziga xos namoyon bo‘lish shakllari, urf-odatlar tizimi, mental tasavvurlar va muloqot jarayonida shakllangan kognitiv andozalar”ni mujassam etadi (Красных, 2003: 154).

Muloqotda hurmat tamoyillari deyarli barcha madaniy an‘analari uchun umumiy bo‘lsa-da, ular har bir lisoniy jamiyatda alohida milliy mazmunga ega bo‘lgan ijtimoiy-me‘yoriy tizim sifatida rivojlanadi. Natijada, har bir xalqning madaniy tajribasi, dunyoqarashi va nutqiy xulq-atvori hurmat ko‘rsatish usullarining o‘ziga xos shakllanishiga xizmat qiladi.

Xushmuomalalikka doir mezonlar umuminsonga xos qadriyat bo‘lishiga qaramay, millatlar ularni mahalliy urf-odatlar, tarixiy tajriba va kundalik munosabatlar orqali turlicha shakllantiradilar. Shu sababli, boshqa mamlakat ijtimoiy hayotini kuzatishda avvalo o‘sha jamiyatda qabul qilingan muomala me‘yorlarining o‘zga xalqlarnikidan farqlanuvchi xususiyatlari e‘tiborni tortadi.

T.V. Larinaning fikricha, hurmat tamoyillarining milliy-madaniy o‘ziga xosligini “insonlararo nutq madaniyatining me‘yorlari va kommunikativ odob qoidalarini belgilovchi madaniy tizim” doirasida tahlil qilish lozim (Ларина, 2009a: 166; shuningdek qarang: Леонтович, 2005: 82). Demak, muloqot me‘yorlari va hurmat ko‘rsatish tizimi milliy madaniyatning struktura hosil qiluvchi asosiy komponentlaridan biridir. Lorenzo-Dus qayd etganidek, bu tizim jamiyatning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, udumlari, marosimlari, odatlari va ijtimoiy qadriyatlariga tayanadi (Lorenzo-Dus, 2007: 145-166).

Hurmat tamoyillarining shakllanishida milliy mentalitetning tutgan o‘rni alohida e‘tiborga loyiq. Mentalitet tushunchasi murakkab va ko‘p qatlamli bo‘lib, ko‘pincha ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo‘ladi. Shaxslararo tafovutlarning juda katta bo‘lishi to‘g‘risidagi fikrlar inkor etilmasa-da, bir qator tadqiqotchilar “milliy xarakter”ni turlicha talqin qiladilar: O.A. Leontovich uni “psixologik identifikasiya”, N.A. Yerofeyev “etnik vakillik”, S.M. Arutyunyan “millatning psixologik me‘morchiligi”, A. Inkels va D. Levensonlar esa “modal shaxs tipi” sifatida izohlaydi (qarang: Теп-Минасова, 2000: 136; Лурье, 1997: 70). Atamalar turlicha bo‘lishiga qaramay, ular barchasi mazkur hodisaning mohiyatini milliy tafakkur va madaniy tajribaning qanday qilib umumiy psixologik model hosil qilishini izohlashga qaratilgan. Shunday ekan, “milliy xarakter” tushunchasiga yangi nom berilishi uning asosiy mazmunini o‘zgartirmay, aksincha, uni aniqroq sharhlashga undaydi.

Milliy xarakter mohiyatini belgilashga qaratilgan ilmiy qarashlarni tahlil qilar ekanmiz, I.S. Konning ushbu masalaga bag‘ishlangan tadqiqotlari alohida e‘tiborga molikdir. Olim o‘z maqolalaridan birida “Milliy xarakter nima?” degan savolga javob topish maqsadida tushunchaning shakllanish tarixiga murojaat qiladi. Konning ta’kidlashicha, “xarakter” atamasi dastlab yunon tilida

paydo bo'lib, u biror narsa yoki hodisani boshqa hodisalardan ajratib turuvchi belgini, ramzni anglatgan; vaqt o'tishi bilan mazkur atama shaxsning o'ziga xos, barqaror sifatlari majmuini ifodalay boshlagan (Kon, 1971).

“Falsafiy lug‘at”da keltirilgan sharhga ko‘ra, xarakter – bu shaxsning tug‘ma biologik xususiyatlari va hayotiy muhit ta’siri ostida shakllanadigan ruhiy barqarorlik tizimidir (ФС 1987: 528). Demak, shaxsning psixik tuzilmasi va uning ijtimoiy tajribasi birlashgan holda, muayyan xalq vakillarida o'ziga xos milliy xarakter namoyon bo'ladi. Shu bois, kommunikativ faoliyatni o'rganishda milliy xarakterning, ya'ni ma'lum etnik guruhga mansub shaxsning psixologik sifatlari majmuining lisoniy birliklarni tanlash, nutq tuzilishi va muloqot strategiyalariga ko'rsatadigan ta'sirini e'tiborga olish muhim deb hisoblanadi.

Shuni alohida qayd etish zarurki, milliy xarakterning shakllanishi alohida shaxslarning individual sifatlari orqali emas, balki ma'lum bir etnik guruh a'zolarining katta qismiga xos bo'lgan umumiy xulq-atvor me'yorlari orqali aniqroq namoyon bo'ladi. Shu sababli biz tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalarini umumlashishda faqat yetarli statistik og'irlikka ega bo'lgan ko'rsatkichlarga tahlilga kiritildi. Boshqacha aytganda, muayyan etnosga mansub xarakter xususiyatlari sifatida tan olinishi uchun ushbu belgilar jamiyat a'zolarining aksariyatida uchrashi hamda ularni boshqa xalqlardan farqlab turishi lozim.

Shu o'rinda, har qanday etnik guruhning psixologik qiyofasini mutlaq darajada talqin etish ilmiy jihatdan to'g'ri emasligini ta'kidlab o'tish muhim. Yu.V. Bromley bu masalada o'rinli ravishda shuni qayd etadiki, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, jasorat, mardlik kabi fazilatlar aslida butun insoniyatga xos universal sifatlari bo'lib, ularni biror xalqning o'ziga xos, eksklyuziv belgisi sifatida talqin qilish nojoizdir. Tadqiqotchi fikricha, ilmiy tahlilning asosiy predmeti bu sifatlarning mavjudligi emas, balki ularning turli xalqlarda qanday shaklda, qanday ifoda vositalari orqali namoyon bo'lishi kerak (Bromley, 1983: 150).

I.S. Kon ham ushbu nuqtai nazarni davom ettirib, milliy xarakter xususiyatlarini mutlaq mazmunda, ya'ni qanday guruh bilan taqqoslanayotgani ko'rsatilmagan holatda bayon etish chalkashliklarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi (Kon, 1971: 148).

Turli xalqlarning milliy xarakteriga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borgan A.V. Pavlovskaya bu boradagi yondashuvda qat'iy baholash yoki mutlaq hukm chiqarishdan tiyilish lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, milliy xarakterni “yaxshi” yoki “yomon” kategoriyalariga ajratish o'rniga, ularning faqat farqliligiga urg'u berish ilmiy jihatdan to'g'ri yondashuvdir (Павловская, 2007: 146). Darhaqiqat, har bir madaniy jamoaning o'ziga xos tavsifi nisbiy bo'lib, ularni qiyoslash jarayonida ba'zan yaqinlik, ba'zan esa keskin tafovutlar yuzaga chiqishi tabiiydir.

T.B. Radbil milliy xarakterni qadriyatlar tizimi sifatida sharhlab, uni shaxslarning ma'naviy-axloqiy harakatlarida, kundalik xulq-atvorda va o'zaro munosabatlariga singib ketgan jamoaviy ideallar, qadriyatlar va ijtimoiy tasavvurlar majmui sifatida talqin qiladi (Радбил, 2010: 63).

V.A. Maslova esa milliy xarakterni vaqt davomida shakllanib, ma'lum millat vakillarining katta qismida kuzatiladigan tipik sifatlarni aniqlash jarayoni sifatida tushuntiradi. Olimaning fikricha, bu xususiyatlarning mavjudligi emas, balki ularning qanday tarzda tuzilishi va o'ziga xos shaklda namoyon bo'lishi milliy xarakterning eng noyob jihatini tashkil etadi (Маслова, 2007: 135).

T.Ye. Stefanenko tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko'ra, milliy xarakterni o'rganishda asosiy e'tibor an'anaviy sifatlarning qay darajada ifodalanishi va ular qanday vositalar yordamida namoyon bo'lishiga qaratilishi lozim (Стефаненко, 1999).

I.A. Sternin esa milliy xarakterni nutqiy xulq-atvor modelining ajralmas tarkibiy elementi sifatida ko'rib, ushbu tushuncha odamlarning axloqiy fazilatlarining kelib chiqishini izohlashda muhim nazariy tayanch bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi (Стернин, 1996).

Shu tariqa, “milliy xarakter” atamasi ilmiy muhokamalar davom etayotgan konseptlardan biri bo'lsa-da, uni tadqiqot amaliyotidan chiqarib tashlashning imkoni yo'q. Sababi, mazkur tushuncha til va madaniy hamjamiyatga mansub individlarning nutqiy xulq-atvori, kognitiv faoliyati hamda psixologik xususiyatlarini bir butun holda ifodalab beradi. Milliy xarakterning ustun bo'lgan belgilari esa muloqot jarayonida muayyan xalq vakillarini boshqa madaniyat odmlaridan farqlovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Ispan madaniyatida hurmat tamoyillarining milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash uchun avvalo ispan tilida soʻzlashuvchilar tomonidan “cortesía” (xushmuomalalik) tushunchasiga qanday mazmun yuklanishini bilish zarur boʻldi. Shu maqsadda biz ushbu konseptning mazmunini aniqlashtirishga qaratilgan anonim soʻrov oʻtkazdik. “Hurmat tamoyillari sizningcha nima?” kabi murakkab savoldan koʻra, respondentlarga tushunarliroq boʻlgan “Qaysi insonni xushmuomala deb atash mumkin?” tarzidagi savolni taklif etdik. Bu yondashuv ispan til sohiblari xushmuomalilik haqidagi umumiy tasavvurlarini aniqroq qayd etishga imkon berdi.

Mazkur tadqiqotda qariyb 200 nafar ispanzabon ishtirok etdi. Respondentlar yoshi (18 yoshdan 61 yoshgacha) va gender belgilariga koʻra guruhlariga ajratilib, maʼlumotlar tahlil qilindi. Hurmat tamoyillarini oʻrganish jarayonida 18-30 yosh oraligʻidagi ispan ayollarining javoblari alohida tahlil qilindi. Ushbu guruh vakillari xushmuomala insonni bir qator sifatlar orqali tavsiflaydilar. Ularning eng koʻp tilga olgan belgilari quyidagilardir: muloyimlik / cortés (35%), mehribonlik / amigable (27%), har doim yordam berishga tayyor turish / listo para venir al rescate (19%), bosiqlik / reservado (17%), eʼtiborchanlik / atento (16%), inobatli boʻlish / considerado (14%), yaxshi odob-axloqqa ega boʻlish / tiene buenos modales (12,7%), hurmatlilik / respetuoso (11%), yoqimtoylik / agradable (9,5%) va nutq odobiga amal qilish / utiliza unidades de etiqueta (8%).

Baʼzi respondentlar esa juda kam uchraydigan qoʻshimcha sifatlarini ham eslatib oʻtganlar: kamtarlik / modesta, osoyishtalik / tranquila, dilkashlik / sociable, ehtiyotkorlik / cautelosa. Ularning tasavvurida xushmuomala inson suhbatdoshining hissiyotlariga befarq boʻlmagan, uning shaxsiyatiga qiziqish bildiradi oladigan, oʻz his-tuygʻularini ochiq ifoda etishga qodir, oʻzaro yashash madaniyatini anglagan va boshqalarga hurmat bilan munosabat qiluvchi shaxsdir. Bunday inson, shuningdek, muloqot jarayonida jamiyatning odob normalarini bilgan holda, oʻziga qanday muomala qilishni istasa, boshqalarga ham shunday munosabatni koʻrsatishga intiladi.

Ingliz va rus madaniyatlarida hurmat tamoyillarini solishtirgan T.V. Larina ingliz lingvomadaniyatida odob-axloq meʼyorlari alohida oʻrin tutishini taʼkidlaydi. Olimaning fikricha, ingliz muloqot anʼanalari yuqori darajadagi xushmuomalilikka asoslanib, suhbatdosh va muhitga hurmat koʻrsatishni talab etuvchi nutqiy etiket shakllari orqali namoyon boʻladi. Inglizcha hurmat strategiyalarining markazida, avvalo, suhbatdoshning hissiyotlari, didi, qiziqishlari va shaxsiy ehtiyojlariga yoʻnaltirilgan kommunikativ usullar turadi (Ларина, 2009: 141-142).

Tahlillar davomida respondentlarning javoblarida xushmuomala insonning koʻp oʻlchovli, kompleks tasvirlari ham uchrab turdi. Masalan:

Una persona educada es alguien que es atento y servicial con otras personas en su vida diaria y mantiene la etiqueta adecuada – “Xushmuomala inson kundalik hayotda boshqalarga nisbatan eʼtiborli, yordam berishga tayyor va odob-axloq qoidalariga rioya qiluvchi shaxsdir” (talaba, 24 yosh).

Una persona educada es alguien que es amable, servicial y agradable, que escucha y no interrumpe. Alguien con buenos modales – “Mehribon, yordam berishga tayyor, suhbatdoshining gapini boʻlmaydigan, yoqimli muomala egasi; yaxshi tarbiyalangan shaxs xushmuomala hisoblanadi” (ishlab chiqarish boʻlimi boshligʻi, 33 yosh).

Es una persona educada que ayuda a otras personas, muestra sentimientos, es considerado y cortés – “Odamlarga koʻmak beradigan, his-tuygʻularini erkin ifoda etadigan, muloyim va inobatli inson xushmuomaladir” (mehmonxona xodimi, 23 yosh).

Una persona educada es cortés, amigable y sabe cómo comportarse en ciertas situaciones, incluso si no siempre es fácil para él – “Xushmuomala inson vaziyatga mos ravishda oʻzini tuta oladigan, hatto qiyin sharoitda ham hissiyotlarini boshqara biladigan, doʻstona va muloyim shaxsdir” (oʻqituvchi, 27 yosh).

Ushbu javoblar ispan respondentlarining xushmuomalilikni koʻp komponentli fazilatlar majmui sifatida koʻrishlarini, yaʼni uni nafaqat odob meʼyorlariga amal qilish, balki emosional sezgirlik, yordamga tayyorlik va kommunikativ ehtiyotkorlik bilan bogʻlashlarini koʻrsatadi.

Keltirilgan misollar shuni koʻrsatadiki, 18-30 yoshdagi qizlar xushmuomala shaxs obrazini, avvalo, mehribonlik, gʻamxoʻrlik, eʼtiborchanlik, yordam berishga tayyorlik, muloyimlik va oʻz fikrini ehtiyotkorlik bilan bildirish kabi sifatlar bilan bogʻlaydilar.

Yigitlar tomonidan bildirilgan tasavvurlar ham qisman ushbu yondashuvni takrorlaydi, biroq ular xushmuomalilikni quyidagi jihatlar orqali ifodalashga moyil bo'lishgan: foydalilik (39%), samimiylik va mehribonlik (28%), yordam berishga tayyorlik (25%) hamda hurmatlilik (21%). Shu bilan birga, ayrim belgilarga ular uncha ahamiyat bermagan: yoqimtoylik (10,7%), e'tiborchanlik (7%), inobatli bo'lish (3,6%), itoatkorlik (3,6%), shuningdek muloqot odobiga amal qilish yoki ochiq chehralik (3,6%). Ba'zi respondentlar esa kam uchraydigan quyidagi fazilatlarini ham eslatib o'tganlar: birovga ozor yetkazmaslik / el que no ofende, ishonchlilik / confia en, halollik / honesto, bosiqlik / tranquilo, minnatdorlik / agradecido.

Javoblar tahlili shuni ham ko'rsatadiki, ayrim ishtirokchilar xushmuomala shaxsni abstrakt sifatlar orqali emas, balki ma'lum kasb egalari yoki o'z hayotlaridagi aniq shaxslar timsolida tasavvur qiladilar. Masalan:

Una persona educada es mi antigua maestra de francés e historia – “Fransuz tili va tarix fanidan saboq bergan eski o'qituvchim xushmuomala insonning namunasi sifatida yodimda qolgan” (ofisiant, 28 yosh).

Una persona educada es un mayordomo, un caballero – “Menimcha, xushmuomala odam – bu saroy xizmatkori yoki chinakam djentelmen” (talaba, 26 yosh).

Bu holatlar yoshlar ongida xushmuomalilik nafaqat shaxsiy xulq-atvor fazilatlarini, balki ma'lum ijtimoiy rollar va kasblar bilan ham bog'lanishini ko'rsatadi.

31-61 yosh oralig'idagi respondentlar tomonidan bildirilgan tasavvurlar, umumiy mazmunda, yoshlar guruhining natijalari bilan deyarli mos keldi. Ushbu ikkinchi guruh ayollarining ko'pchiligi xushmuomala insonni, avvalo, samimiy (21%), ijtimoiy jihatdan foydali (21%), muloyim (19%), yaxshi xulq-atvor egasi (19%) va boshqalarga yordam ko'rsatishga moyil (12,8%) shaxs sifatida tasavvur qilganlar.

Kamtar hollarda esa quyidagi sifatlar eslatib o'tilgan: ochiqko'ngillilik / abierto, samimiylik / cordial, do'stona munosabat / sociable, rostgo'ylik / sincero, aniq vaqtga amal qilish / puntual, bag'rikenglik / tolerant. Umuman olganda, xushmuomala inson suhbatdoshi bilan uyg'un muloqot muhitini yaratishga intilib, muloqot jarayonida suhbatdoshning o'zini noqulay his qilmasligini ta'minlashga harakat qilishi qayd etilgan.

Ayrim javoblarda xushmuomala shaxsning asosiy belgisi sifatida suhbatdoshning shaxsiy makonini hurmat qilish va uning ijobiy qiyofasini qo'llab-quvvatlash ko'rsatiladi. Masalan:

Una persona educada es una persona que es considerada con las necesidades faciales de otras personas... – “Xushmuomala inson suhbatdoshining ijobiy obrazini qadrlay oladigan shaxsdir” (tadqiqotchi, 33 yosh).

Una persona educada es distante y discreta – “Bunday odam shaxsiy masofani saqlaydi va suhbatni tinglovchi xohishiga zid tarzda davom ettirmaydi” (o'qituvchi, 60 yosh).

Una persona educada es alguien que respeta los límites del otro y puede mantener una distancia – “Xushmuomala inson boshqalarning muloqotdagi shaxsiy chegaralariga hurmat bilan yondashadi va ijtimoiy masofani saqlay oladi” (rassom, 48 yosh).

Una persona educada es alguien quién puede regular sus necesidades... – “Bunday shaxs muloqot jarayonida suhbatdoshining ehtiyojlarini inobatga olgan holda o'z ehtiyojlarini muvozanatlashtira oladi va o'zaro qoniqish darajasidagi muloqotni ta'minlaydi” (ilmiy xodim, 41 yosh).

Bu fikrlar shuni ko'rsatadiki, katta yoshdagi ispan respondentlari xushmuomalilikni nafaqat odob-axloq me'yorlariga amal qilish, balki ijtimoiy fazilatlar, empatiya, shaxsiy chegaralarni sezish va muloqot jarayonini muvozanatlashtirish bilan chambarchas bog'laydilar.

Shuningdek, e'tiborga loyiq jihatlardan biri shundaki, 31-61 yosh oralig'idagi ispan respondentlari orasida xushmuomala shaxsni tavsiflashda eng ko'p uchragan belgi hurmat-ehtiroq / respeto (30%) bo'lib chiqdi. Bu holat, bizningcha, bejiz emas: “hurmat” tushunchasi xushmuomalilikning mazmunini to'liq qamrab oladigan, unga daxldor barcha fazilatlarini birlashtiruvchi keng qamrovli kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni hurmat shaxsning e'tiborli bo'lishi, mehribonlik ko'rsatishi, yordam berishga tayyor turishi, mos nutqiy vositalardan foydalanishi, ijtimoiy masofaga rioya qilishi kabi fazilatlarini o'z ichiga oladi.

Ushbu holat ispan lingvomadaniyatida hurmat tamoyillari murakkab va ko'p qatlamli kognitiv hodisa ekanligini, uning faollashuvi turli aspektlarda yuzaga chiqishini tasdiqlaydi. Natijada ispanlar tasavvurida xushmuomala inson foydasi tegadigan, samimiy, e'tiborli, boshqalarni qadrlaydigan; muloyim va mehribon; vaziyatga mos ravishda andishali; yordam qo'lini cho'zishga shay; muloqot jarayonida odob-axloq qoidalariga amal qiladigan hamda nutqiy etikani doimo inobatga oladigan shaxs sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lorenzo-Dus N. (Im) politeness and the Spanish media: The case of audience participation debates. En Placencia, M. E. & García, C.: Research on politeness in the Spanish-speaking world. – New Jersey, – London: LEA6 2007. – Pp. 145-166.
1. Кон И.С. К проблеме национального характера // История и психология. – М.: Наука, 1971. – С. 122-159.
2. Красных В.В. «Свой» среди «чужих»: миф или реальность? – М.: ИТДГК «Гнозис», 2003. – 375 с.
3. Ларина Т.В. Категория вежливости и стиль коммуникации: Сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций. – М.: Языки славянских культур, 2009. – 512 с.
4. Леонтович О.А. Русские и американцы: парадоксы межкультурного общения: Монография. – М.: Гнозис, 2005. – 352 с.
5. Лурье Г.Б. Историческая этнология: Учебное пособие для вузов. – М.: Аспект-пресс, 1997. – 445 с.
6. Маслова В.А. Homo lingualis в культуре: Монография. – М.: Гнозис, 2007. – 320 с.
7. Павловская А.В. Особенности национального характера итальянцев, англичан, немцев, норвежцев и финнов, американцев, исландцев. – М.: Факультет иностранных языков МГУ, 2007. – 172 с.
8. Радбил Т.Б. Основы изучения языкового менталитета: учеб. пособие. – М.: Флинта; Наука, 2010. – 328 с.
9. Стернин И.А. Коммуникативное поведение в структуре национальной культуры // Этнокультурная специфика языкового сознания. – М.: Российская Академия Наук, Институт языкознания, 1996. – С. 97-112.
10. Стефаненко Т.Г. Этнопсихология. – М.: Институт психологии РАН, «Академический проект», 1999. – 320 с.
11. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация: (Учеб. пособие) – М.: Гжиобо/Слово, 2000. – 264 с.
12. ФС (Философский словарь) / Под ред. Фролова И.Т. 5-е изд. – М.: Изд-во политической литературы, 1987. – 590 с.



ISSN 2181-9297

Doi Journal 10.26739/2181-9297

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000